

ZAMONAVIY O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA TERMINOLOGIK HAMDA ELEKTRON LUG‘ATLARNING O‘RNI

Burxonova E’zoza Odil qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti I bosqich talabasi

Email: m.sobirjonova11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek leksikografiyasida terminologik va elektron lug‘atlarning ahamiyati, ularning fan va amaliyotdagi o‘rni, til resurslarini raqamlashtirishdagi o‘rni hamda innovatsion yechimlar haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasining asosiy yo‘nalishlari, xususan, terminologik va elektron lug‘atlarning ahamiyati hamda ularning til taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Terminologik lug‘atlar fan va texnika sohalarida ishlatiladigan atamalarni me‘yorlashtirish, yagona talqinda qo‘llashni ta‘minlashda muhim vosita ekanligi ta‘kidlanadi. Elektron lug‘atlar esa zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratilgan bo‘lib, tezkor qidiruv, interaktiv foydalanish va ma‘lumotlarni yangilab borish imkoniyatiga ega.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, terminologik lug‘at, elektron lug‘at, o‘simlik nomlari, mobil ilova, lingvistik resurslar, zamonaviy axborot texnologiyalari, izohli lug‘at.

Bugungi kunda tilshunoslik va leksikografiya sohasida zamonaviy talablar asosida yangi uslublar va texnologiyalar joriy etilmoqda. Ayniqsa, terminologik lug‘atlar va ularning elektron ko‘rinishlari tilning zamonaviy rivojida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbek tilining izohli lug‘atlari asosida maxsus sohaga oid terminologik lug‘atlar yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu jarayonda leksik birliklarni tizimlashtirish, raqamlashtirish va mobil ilova ko‘rinishida taqdim etish bo‘yicha ishlar jadal sur‘atlarda olib borilmoqda.

Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi mustaqillik davridan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Til siyosati va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida o‘zbek tilida yaratilayotgan lug‘atlar soni ham, sifati ham ortib bormoqda. Leksikografiya — bu til boyligini, ya‘ni so‘zlar va ularning ma‘nolarini to‘plash, tartibga solish va lug‘atlar shaklida taqdim etish bilan shug‘ullanadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda leksikografiya yo‘nalishida ikki muhim turdagi lug‘atlar — terminologik va elektron lug‘atlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Terminologik lug‘atlar muayyan fan, texnika yoki ishlab chiqarish sohasiga oid atamalarni to‘plash, izohlash va me‘yorlashtirish uchun tuziladi. Ular ilmiy va texnik tafakkurning rivojida, sohalararo aloqa va tarjima ishlarida muhim manba vazifasini bajaradi. Bunday lug‘atlar tilning me‘yorini shakllantirish, yangi tushunchalar uchun o‘zbekcha ekvivalentlar yaratish, xalqaro terminlarni milliyashtirish orqali til taraqqiyotiga xizmat qiladi. Terminologik lug‘atlar tufayli ilmiy matnlarning aniqligi ta‘minlanadi, atamalar yagona ma‘noda qo‘llanadi va til madaniyati yuksaladi. Masalan, “O‘zbek tilining lingvistik terminlar lug‘ati”,

“Axborot texnologiyalari terminlarining izohli lug‘ati”, “Tibbiyot terminlari lug‘ati” kabi manbalar o‘z sohasida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Elektron lug‘atlar esa zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratilgan, foydalanuvchiga qulay, tezkor va interaktiv shakldagi lug‘atlardir. Ular yordamida so‘z va iboralarni bir necha soniya ichida topish, ularning ma‘nosi, talaffuzi, tarjimai yoki grammatik xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Elektron lug‘atlar muntazam yangilanib turadi, ularga yangi so‘z va ma‘nolar qo‘shiladi, shuningdek, audio, video va kontekstual misollar bilan boyitiladi. Bu esa nafaqat o‘quv jarayonida, balki tarjima, tahrir va ilmiy ishlar uchun ham katta qulaylik yaratadi. Hozirgi kunda “ZiyoNet” onlayn lug‘atlari, “Til.gov.uz” platformasidagi elektron lug‘atlar, hamda “O‘zbek tilining izohli elektron lug‘ati” keng foydalanuvchilar auditoriyasiga ega bo‘lib, o‘zbek tilining raqamli makondagi mavqei mustahkamlab bormoqda.

Terminologik lug‘atlar o‘zbek tilining ilmiy asoslarini mustahkamlasa, elektron lug‘atlar uning raqamli maydondagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkalasi ham o‘zbek tilining rivoji, standartlashuvi va zamonaviy axborot jamiyatida munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasida terminologik hamda elektron lug‘atlar til taraqqiyoti, ilmiy yondashuv va ta‘lim samaradorligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega manbalardir.

Misol tariqasida, A. I. Qosimov va M. M. Nabiyevlar tomonidan yaratilgan “Botanikadan qisqacha izohli lug‘at”ga to‘xtalib o‘tishimiz mumkin. Lug‘at maqolasini tashkil etuvchi ma‘lumotlarda o‘simlikning ham botanik, ham lingvistik jihatdan tavsifi keltirilgan. Misol uchun, boychechak oladigan bo‘lsak, ushbu lug‘atda u quyidagicha tavsiflangan:

1. Botanik jihatdan: boychechak – loladoshlar oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik o‘simlik. Bo‘yi past bo‘lib 10-15 sm dan oshmaydi, piyozchasi bor, serbarg, guli sariq, och sariq rangda, erta bahorda ochiladi, yozda ustki qismi qurib qoladi. Mevasi uch chanoqli ko‘sakchadan iborat, dunyoning deyarli hamma yerida 75 dan ortiq turi o‘sadi, ba‘zi turlarida zaxarli alkaloid bo‘lganligi sababli tibbiyotda ishlatiladi.

2. Lingvistik jihatdan: boychechak – o‘zbekcha boy va chechak so‘zining birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z, uning bunday atalishiga yer yuzasidan qor ketishi bilan nish urib chiqishi va ko‘p o‘tmay gullashi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak, chunki bu bilan yer qishdan chiqib ekin ekishga tayyorligidan darak beradi, binobarin, u to‘kin-sochinlik, tinchlik simvolidir. Ba‘zi adabiyotlarda u sovrinjon deb beriladi. Ruscha nomi – bezvremennik (безвременник), lotincha – colchicum [kɔltʃikəm].

Bilamizki, O‘zbekiston ekologik-iqlimiy hududi, biologik xilma-xilligi va qadimiy dehqonchilik an‘analari tufayli o‘simlik nomlari juda boy va rang-barangdir. Ammo xalq og‘zaki ijodida, dialektlarda va ilmiy adabiyotlarda bu nomlarning turlicha shaklda uchrashi o‘simliklar bo‘yicha yagona tasnif va tushunishni qiyinlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, o‘simliklar lug‘atlarini tuzish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin bunday lug‘atlarni yaratishda asosiy manbalardan biri sifatida izohli lug‘atlarga murojaat qilinadi. Chunki izohli lug‘atlar har bir so‘zning ma‘nosini, ishlatilish kontekstini, ko‘pincha sinonimlarini va etimologiyasini keltirib o‘tadi. Bu

esa o‘simlik nomlarini aniqlashtirish, rasmiylashtirish va yagona shaklda kodlash imkonini beradi.

Lug‘atshunoslikda terminologik lug‘atlar umumiy til lug‘atlaridan farqli o‘laroq, muayyan fanning aniq va barqaror tushunchalarini ifodalaydigan, sohani aks ettiruvchi terminlarni to‘plashi bilan ajralib turadi. Bunday lug‘atlar til birliklarining nafaqat ma’noviy, balki funksional va uslubiy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ayniqsa, zamonaviy terminologik lug‘atlar ma’lumotlarni tizimlashtirish, klassifikatsiya qilish, elektron baza yaratish, tarmoqlarga bo‘lish (tasniflash), xalqaro terminlar bilan bog‘lash kabi vazifalarni bajaradi.

Zamonaviy leksikografiya ham o‘z navbatida elektron formatda tuzilayotgan lug‘atlar bilan bog‘liq. Bunday lug‘atlar foydalanuvchiga tezkor, aniq va boy axborotni taqdim etadi. Shuningdek, interaktiv qidiruv, multimedia vositalari, tezkor yangilanish kabi afzalliklari ham bor.

Bugungi kun o‘zbek leksikografiyasi yosh tilshunoslardan shu kabi lug‘atlarni tuzishni talab etmoqda. Bu yondashuv tilshunoslikni raqamlashtirish, terminlarni standartlashtirish va ilmiy axborotni ommaga yetkazishda muhim vositadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasida terminologik va elektron lug‘atlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular tilshunoslar va keng jamoatchilik uchun dolzarb axborot manbaiga aylanmoqda. Mobil ilovalar yordamida terminlarni tizimlashtirish til va texnologiyaning uzviy integratsiyasi sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Qosimov A.I., Nabiyeu M.M. Botanikadan qisqacha izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
- 2.СОБИРЖОНОВА, М. С., & ЭШКУВВАТОВА, Г. А. К. (2018). Проблемы обучения непонятным словам в английских классах. *Наука среди нас*, (6), 244-249.
- 3.Sobirjonovna SM. EXPLANATION OF DISCOURSE MARKERS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*. 2023;21:193-9.
- 4.Muhammadxonov S., Jonguzarov F. O‘simlikshunoslikka oid ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at. – Toshkent: 2010.
- 5.Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018.